

ONLAYN ANTIVIRUSLAR VA ULARDAN FOYDALANISH TARTIBI

Suyarov Akram Musayevich

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti

Axborot texnologiyalari kafedrası PhD, dotsent

Yusupova Dilnoza Madraxim qizi

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti

XIM-325 guruh talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada raqamli xavfsizlikni ta'minlashda online antivirus xizmatlarining o'rni va ulardan foydalanishning asosiy tartib-qoidalari yoritilgan. Online antiviruslarning afzalliklari, ularning tezkorligi, o'rnatish talab qilinmasligi hamda bir nechta antivirus dvijoklari yordamida fayllarni chuqur tahlil qilishi haqida batafsil ma'lumot beriladi. Shuningdek, VirusTotal, ESET Online Scanner, Kaspersky TIP kabi keng qo'llaniladigan online xizmatlarning imkoniyatlari ko'rib chiqiladi. Maqolada online antiviruslardan foydalanish bosqichlari — xizmatni tanlash, fayl yoki URL manzilni tekshirish, natijalarni tahlil qilish hamda tahdidlarga qarshi choralar ko'rish jarayonlari va ba'zi kamchililari izchil bayon etilgan. Tadqiqot natijalari online antiviruslar foydalanuvchilarga tezkor, qulay va samarali himoya vositasi sifatida xizmat qilishini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: Online antivirus, axborot xavfsizligi, zararli dasturlar, VirusTotal, ESET Online Scanner, Kaspersky, skanerlash, bulut texnologiyasi, fayl tekshiruvi, URL tahlili, troyan, malware, fishing, kompyuter himoyasi, xavfsizlik tizimi.

Kirish

Hozirgi kunda raqamli texnologiyalar hayotning deyarli barcha jabhalariga chuqur kirib kelgani sayin axborot xavfsizligini ta'minlash dolzarb masalaga aylanib bormoqda. Kompyuter va mobil qurilmalar orqali amalga oshiriladigan ma'lumot almashinuvi hajmining oshishi, internetdan faol foydalanish, elektron xizmatlarning kengayishi zararli dasturlar tarqalishining yangi shakllarini yuzaga keltirmoqda. Viruslar, troyanlar, fishing dasturlari, shifrllovchi zararli kodlar va boshqa kiber tahdidlarning ortib borishi

foydalanuvchilardan yanada kuchli va tezkor himoya choralari qo'llashni talab qiladi. Ko'plab foydalanuvchilar an'anaviy antivirus dasturlariga tayanadi. An'anaviy antiviruslar kompyuterga o'rnatiladigan va tizimni real vaqt rejimida himoya qiluvchi dasturlardir. Biroq ularning samaradorligi doimiy yangilanishga, tizim resurslaridan faol foydalanishga va ko'p hollarda foydalanuvchi qurilmasida ishlashiga bog'liq. Shu sababli, zamonaviy tahdidlarga tezda moslasha olmaslik, katta fayllarni sekin skanerlashi yoki ba'zan yangi viruslarni aniqlay olmaslik holatlari uchrab turadi.

Shu nuqtai nazardan, online antiviruslar hozirgi kunda yanada qulay va zamonaviy yechim sifatida keng qo'llanilmoqda. Online antiviruslar kompyuterga o'rnatilmaydi, balki internet brauzeri orqali ishlaydi va bulut texnologiyalari asosida fayllarni tekshiradi. Ularda virus bazasi real vaqt rejimida yangilanadi, bir vaqtning o'zida bir nechta (ko'pincha 50–70 ta) antivirus dvijoklari orqali fayllar tahlil qilinadi va tekshiruv natijalari aniq hamda ishonchli bo'ladi. Eng muhimi, ular tizimni sekinlashtirmaydi, kompyuterdagi mavjud antivirus bilan to'qnashuvga (konfliktga) sabab bo'lmaydi va shubhali fayl yoki havolani bir necha soniya ichida tekshirish imkonini beradi. Mazkur maqolada online antiviruslarning afzalliklari, ularning turlari, qo'llanish sohalari hamda ulardan foydalanish tartibi batafsil tahlil qilinadi. Shuningdek, onlayn xavfsizlikni ta'minlashda ushbu xizmatlarning bugungi kunda nechog'lik zarur ekanligi ham yoritiladi.

Adabiyot sharhi

Online antiviruslar va axborot xavfsizligi bo'yicha mavjud adabiyotlarni tahlil qilganda, ularning foydalanuvchilarga qo'shimcha himoya qatlamini taqdim etishi alohida ta'kidlanadi. VirusTotal, ESET va Kaspersky kabi xizmatlar bir nechta antivirus dvijoklari orqali fayl va URL manzillarni tekshiradi, bu esa tekshiruvni tez va ishonchli qiladi. Ilmiy maqolalar va amaliy qo'llanmalar online antiviruslarning bulut texnologiyalari asosida ishlashi va doimiy yangilanib turishi tufayli foydalanuvchining kompyuterini himoya qilishda samarali ekanligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, online antiviruslar an'anaviy antivirus dasturlarini to'liq almashtirmasdan, ularga qo'shimcha vosita sifatida ishlatiladi. Foydalanuvchi tajribalari ularning tezkorligi, resurslarni minimal ishlatishi va eski qurilmalarda ham samarali ekanligini tasdiqlaydi. Shu tarzda, mavjud adabiyotlar online antiviruslarning hozirgi kunda axborot xavfsizligini ta'minlashda muhim rol o'ynashini

ko'rsatadi va ularning qo'llanishi foydalanuvchilar uchun dolzarb ekanligini tasdiqlaydi.

Tadqiqot metadalogiyasi

Ushbu tadqiqotda online antiviruslarning imkoniyatlari va ularning an'anaviy antiviruslardan farqlarini o'rganish uchun taqqoslovchi tahlil usuli qo'llanildi. VirusTotal, ESET Online Scanner va Kaspersky TIP kabi xizmatlar funksional jihatdan amaliy kuzatish asosida tahlil qilindi. Shuningdek, axborot xavfsizligiga oid ilmiy maqolalar va texnik ma'lumotlar kontent tahlili orqali o'rganildi. Olingan ma'lumotlar asosida online antiviruslarning afzalliklari umumlashtirildi. Tadqiqot natijalari ushbu vositalarning foydalanuvchilar uchun qo'shimcha va samarali himoya vositasi ekanini ko'rsatdi.

Tahlil va natijalar

Tadqiqot davomida online antivirus xizmatlari an'anaviy (o'rnatiladigan) antivirus dasturlari bilan taqqoslab o'rganildi. Statistik kuzatishlarga ko'ra, VirusTotal, ESET Online Scanner va Kaspersky TIP kabi online xizmatlar foydalanuvchilar tomonidan eng ko'p qo'llaniladigan platformalar bo'lib, ulardan foydalanish soni so'nggi yillarda sezilarli darajada oshgani aniqlangan. Taqqoslash natijalari shuni ko'rsatadiki, online antiviruslar tezkor tahlil, ko'p dvijokli skanerlash va bulut asosidagi doimiy yangilanish bo'yicha ustunlikka ega, biroq tizimni real vaqt rejimida himoya qilish funksiyasi bo'yicha an'anaviy antivirus dasturlaridan pastroq turadi

Statistik tahlil jarayonida online antiviruslarning o'rtacha skanerlash tezligi 10–30 soniyani tashkil etishi, an'anaviy antiviruslarda esa bu jarayon kompyuter resurslari bandligi tufayli sezilarli darajada uzoqroq davom etishi aniqlandi. Taqqoslash orqali shuningdek, online antiviruslar asosan tezkor tekshiruv, shubhali fayllarni baholash va URL manzillarni tahlil qilishda samarali ekani, keng ko'lamli himoya esa an'anaviy antiviruslarning asosiy afzalligi ekanligi belgilandi. Olingan ma'lumotlar online antiviruslar foydalanuvchi uchun qo'shimcha xavfsizlik qatlami sifatida muhim ahamiyat kasb etishini isbotladi.

Ko'rsatkichlar	Online antiviruslar	An'anaviy antiviruslar
Skanerlash tezligi (o'rtacha)	10–30 soniya	1–3 daqiqa
Yangilanish tartibi	Bulut asosida avtomatik	Dastur yangilanish paketlari orqali
Aniqlik darajasi (taxminiy %)	85–95%	90–98%
Tizimgatushadigan yuklama	Juda past	O'rtacha yoki yuqori
Real vaqt himoyasi	Mavjud emas	Mavjud
Dastur o'rnatilishi	Kerak emas	Majburiy
Asosiy qo'llanish holati	Tezkor tekshiruv, shubhali fayllar	To'liq tizim himoyasi

Jadval tahlili shuni ko'rsatadiki, online antiviruslar skanerlash tezligi va bulut texnologiyalariga asoslangan doimiy yangilanish mexanizmi bilan an'anaviy dasturlardan sezilarli ustunlikka ega. Tizim resurslarini minimal darajada talab qilishi ularni past quvvatli qurilmalarda ham samarali qo'llash imkonini beradi. Ko'p dvijokli analiz mexanizmi esa online servislarning aniqlik darajasini oshirib, shubhali fayllarni operativ baholashda yuqori natijalarni ta'minlaydi. Real vaqt himoyasi mavjud bo'lmasa-da, ularning funksional qulayligi va tezkor diagnostika imkoniyatlari online antiviruslarni zamonaviy kiberxavfsizlik tizimining ajralmas bo'g'ini sifatida belgilaydi. Shu jihatdan, online antiviruslar an'anaviy himoya vositalarini to'ldiruvchi samarali texnologik yechim sifatida tavsiya etiladi.

Xulosa

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, online antivirus xizmatlari zamonaviy axborot xavfsizligi tizimida muhim o'rin egallab, foydalanuvchining mavjud antivirus dasturini to'ldiruvchi vosita sifatida samarali hisoblanadi. Taqqoslama metodiga tayangan holda, online servislar tezlik, qulaylik va aniqlik bo'yicha ustunlikka ega ekanligi, statistik

natijalarga ko'ra esa ularning ishlash samaradorligi va yangilanish darajasi yuqori.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, online antivirus xizmatlari zamonaviy axborot xavfsizligi tizimida muhim o'rin egallab, foydalanuvchining mavjud antivirus dasturini to'ldiruvchi vosita sifatida samarali hisoblanadi. Taqqoslama metodiga tayangan holda, online servislarning tezlik, qulaylik va aniqlik bo'yicha ustunlikka ega ekanligi, statistik natijalarga ko'ra esa ularning ishlash samaradorligi va yangilanish darajasi yuqori ekanligi aniqlandi. Shu bilan birga, real vaqt rejimidagi to'liq himoya faqat o'rnatiladigan antivirus dasturlari tomonidan ta'minlanishi ularning hal qiluvchi farqi sifatida belgilandi. Natijalar umumlashtirilganda, online antiviruslardan foydalanish shubhali fayllarni tekshirish, zararli dasturlarni aniqlash va qo'shimcha xavfsizlik choralari ko'rishda eng maqbul yechim ekani, ammo ularni to'liq xavfsizlik tizimi sifatida emas, balki yordamchi vosita sifatida qo'llash maqsadga muvofiq ekani qayd etildi. Shu sababli foydalanuvchilarga online va an'anaviy antiviruslarni birgalikda qo'llash tavsiya etiladi.

Takliflar

1. Aniqlikni oshirish: Online antiviruslarning virus va zararli dasturlarni aniqlash darajasini yanada oshirish uchun ko'p dvijokli tahlil mexanizmini kengaytirish va sun'iy intellekt asosida tahdidlarni oldindan aniqlash imkoniyatlarini joriy etish.

2. Real vaqt himoyasini qo'llash: Onlayn xizmatlarga real vaqt rejimida monitoring va tahdidlarni bloklash funksiyasini qo'shish, shu orqali foydalanuvchi qurilmasini yanada samarali himoya qilish.

3. Foydalanuvchi interfeysini takomillashtirish: Oddiy va qulay interfeys yaratish, mobil va desktop platformalarda ishlashni yaxshilash, foydalanuvchilarga tezkor va oson tekshiruv imkonini berish.

4. Bulut infratuzilmasini kengaytirish: Tekshiruv va yangilanishlar tezligini oshirish uchun serverlar va bulut infratuzilmasini rivojlantirish, global miqyosda tezkor xizmat ko'rsatish.

5. Tahdidlar bazasini kengaytirish va yangilanishni avtomatlashtirish: Viruslar va zararli dasturlar bazasini tez-tez yangilash va avtomatlashtirilgan tizim orqali foydalanuvchiga darhol yangilanishlarni taqdim etish.

Foydalanilgan manbalar

1. Kaspersky Lab. (2024). *Kaspersky OpenTIP: Threat Intelligence Portal*. Retrieved from <https://opentip.kaspersky.com>
2. VirusTotal. (2024). *Online Multi-Engine Malware Scanner*. Retrieved from <https://www.virustotal.com>
3. ESET. (2024). *ESET Online Scanner – Cloud-Based Malware Detection Tool*. Retrieved from <https://www.eset.com/int/home/online-scanner>
4. Norton. (2023). *Types of Malware and Emerging Cyber Threats*. Retrieved from <https://us.norton.com/blog>
5. AV-TEST Institute. (2024). *Independent IT-Security Evaluations and Malware Detection Reports*. Retrieved from <https://www.av-test.org>
6. OWASP Foundation. (2023). *Web Application Security Principles and Best Practices*. Retrieved from <https://owasp.org>
7. Symantec Security Center. (2023). *Malware Analysis Reports and Threat Intelligence*. Retrieved from <https://symantec.com/security-center>
8. TechRadar. (2024). *Review of the Best Online Antivirus Tools*. Retrieved from <https://www.techradar.com>
9. CISA – Cybersecurity & Infrastructure Security Agency. (2024). *Cyber Hygiene and Online Safety Guidance*. Retrieved from <https://www.cisa.gov>
10. Norton. (2023). *Types of Malware and Emerging Cyber Threats*. Retrieved from <https://us.norton.com/blog>
11. AV-TEST Institute. (2024). *Independent IT-Security Evaluations and Malware Detection Reports*. Retrieved from <https://www.av-test.org>
12. OWASP Foundation. (2023). *Web Application Security Principles and Best Practices*. Retrieved from <https://owasp.org>
13. Symantec Security Center. (2023). *Malware Analysis Reports and Threat Intelligence*. Retrieved from <https://symantec.com/security-center>
14. TechRadar. (2024). *Review of the Best Online Antivirus Tools*. Retrieved from <https://www.techradar.com>